

## TALABA-YOSHLARNING KOMMUNIKATIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK MULOQOTNING AHAMIYATI

**Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti*

*Pedagogika mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

[okaugust2022@gmail.com](mailto:okaugust2022@gmail.com)

+998771833898

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ma'naviy-kommunikativ madaniyat tushunchasining ahamiyati ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar asosida ko'rsatib berilgan. Shuningdek, kommunikativ konsepsiyalar orqali talaba-yoshlarning ma'naviy-kommunikativ madaniyatini rivojlantirishning mohiyati, o'qituvchilar faoliyatidagi ahamiyati bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kommunikativ madaniyat, pedagogik muloqot, xarakter, xususiyat, pedagogik mahorat, nutq, madaniyat, pauza, imkoniyat, jamoa, ravon, saviya.*

**Аннотация:** *В статье на основе научных исследований и международного опыта раскрывается значение концепции духовно-коммуникативной культуры. Также раскрывается сущность развития духовно-коммуникативной культуры студентов и молодёжи посредством коммуникативных концепций и их значение в работе педагогов.*

**Ключевые слова:** *коммуникативная культура, педагогическое общение, характер, особенность, педагогическое мастерство, речь, культура, пауза, возможность, команда, беглый, уровень.*

**Abstract:** *This article shows the importance of the concept of spiritual and communicative culture based on scientific research and international experience. Also the essence of developing the spiritual and communicative culture of students and young people through communicative concepts and their importance in the work of teachers are described.*

**Keywords:** *communicative culture, pedagogical communication, character, characteristic, pedagogical skill, speech, culture, pause, opportunity, team, fluent, level.*

**Kirish.** Bugungi kunda yurtimizda ta'lim jarayonini tashkil etish, ma'lum bir mavzuni talabalarga yetarli darajada tushuntirib bera olish, ularning bilim salohiyatini oshirish hamda jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs sifatida kamol topishida ko'maklashish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan yurtimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish, yoshlarga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun ekani ham fikrimizning

yaqqol dalilidir. Bunga qo'shimcha sifatida "Ilm-fanning bunyodkorlik salohiyatidan unumli foydalanish, aholining umumiy ilmiy dunyoqarashi, madaniy saviyasini oshirish yo'lida keng ko'lamli axborot tadbirlarini jadal uyushtirish" ga doir qo'shimcha chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda [1].

Mamlakatimizda bo'lajak talaba-yoshlarni kommunikativ madaniyatini rivojlantirish jarayonini milliy an'ana, madaniyat, qadriyatlarga asoslangan holda olib borish, pedagogik muloqotni shakllantirish, o'z kasbiga qiziqishini rivojlantirish, yangi davr talablari, o'qitishning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq talaba-yoshlarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish ta'lim tizimining yana bir ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Kommunikativ madaniyat hamda pedagogik muloqot haqida so'z borar ekan, avvalo, ushbu tushunchalarning mazmun va mohiyatini anglash asosiy vazifa sanaladi. Pedagogik muloqot hamda kommunikativ madaniyat orasidagi munosabatlarni o'rganishning uslubiy jihatdan murakkabligi va o'ziga xosligi turli xil mulohazalarda o'z aksini topgan. Kommunikativ madaniyat – bu insonlarning muloqot qilish jarayonidagi madaniyati bo'lib, unda og'zaki hamda yozma nutqda chiroyli so'zlashuv va o'zaro hurmatga asoslangan holda muloqot qilish, ushbu jarayonda jamiyatdagi ijtimoiy qoidalariga rioya qilish nazarda tutiladi.

Talaba-yoshlarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishda o'qituvchining pedagogik muloqoti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda kommunikativ madaniyatni rivojlantirish muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Kommunikativ madaniyatni quyidagi qoidalar asosida ifodalash mumkin:

- Fikrlarni aniq va ravon ifodalash;
- Muloqot madaniyatiga rioya qilish;
- O'zgalar fikrini to'liq bayon etguniga qadar tinglash;
- Jamoaviy uchrashuvlarda hamkasblar fikrini hurmat qilish;
- Muloqot jarayonida nutq madaniyatiga mos kelmaydigan so'zlardan foydalanmaslik.

Talaba-yoshlarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishda o'qituvchining muomala madaniyati ham muhim o'rin egallaydi. Pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchining eng yaxshi sifatleri va xatti-harakatlari ta'lim oluvchilarning ideali sifatida namoyon bo'ladi. "Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir" [2].

O'qituvchi nutqi ravon, aniq va ta'sirchan bo'lishi zarur. Bu esa o'qituvchining dars o'tish jarayonidagi samaradorligini oshirishga, ta'lim oluvchilarda esa bilim olish, yangiliklarni o'rganish, o'z fikrini erkin ifoda etish va o'qishga bo'lgan qiziqishning kuchayishiga yordam beradi. Pedagogik muloqot jarayonida nutqning uslubiy jihatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uslub o'qituvchining mavzuga oid fikrlarini qanday yetkazishida va ta'lim oluvchilarda esa berilgan mavzuga qiziqish uyg'otishda kata rol o'ynaydi.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** O'qituvchi talaba-yoshlar bilan muomalaga kirishish asosida :

1. O'zining ijodkorligi hamda pedagogik mahoratini ko'rsatadi
2. Ta'lim berish jarayonida o'zining tarbiyaviy jhatlarini ham namoyish etish mobaynida talabalar qalbiga yo'l topadi.
3. Milliy udum va an'analimiz asosida yetuk shaxsni tarbiyalaydi

O'qituvchi pedagogik muloqot orqali talaba-yoshlarning kommunikativ madaniyatini rivojlantira olishi uning pedagogik mahoratiga bog'liq. Pedagogik mahorat –izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun bir qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida yuzaga keladigan jarayondir [3]

Pedagogik muomala jarayonida o'qituvchi quyidagilarga qat'iy rioya qilishi lozim:

- O'qituvchida tarbiyalovchilik xarakterining shakllanganligi;
- Ta'lim oluvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, imo-ishora, pauza va harakatni o'z o'rnida ishlata olishi;
- Dars mashg'ulotini boshlashdan avval ta'lim oluvchilarni ta'limiy va tarbiyaviy muloqotga tayyorlay olishi
- O'qituvchining nutqi ravon bo'lishi va ta'lim oluvchilarga ijobiy ta'sir qila olishi.

Insonning tili shirin, muomala madaniyatiga ega bo'lsa, qisqa vaqt davomida xalq orasida o'z obro'-e'tiboriga ega bo'ladi. Ortiqcha gapirish esa hech qachon insonga obro' olib kelmaydi. Shu o'rinda I.P.Pavlovning "O'qituvchi so'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatlarni o'ylashi kerak",- degan fikrini misol qilishimiz mumkin[4].

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonida o'quvchilar bilan kommunikativ madaniyatni yo'lga qo'yishi orqali quyidagi natijalarga erishishi mumkin:

- O'qituvchining shirinso'zligi, xushmuomala bo'lishi, samimiyligi tufayli ijobiy natijalarga erishadi;
- O'qituvchi talaba-yoshlar bilan pedagogik muloqotni o'rnatish orqali kommunikativ madaniyatni rivojlantiradi;

Muloqot madaniyatini shakllantirish orqali esa ta'lim oluvchilar hissiyotida yashiringan eng nozik jihatlarni ham anglab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tahlil natijalari va muhokama jarayoni shuni anglatadiki, pedagogik jarayonda talaba-yoshlarning kommunikativ madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu talaba-yoshlarning nafaqat shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, madaniy taraqqiyoti va yoshlar orasida ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishi uchun ham zarurdir. Shu bilan birga, badiiy pedagogika metodlaridan samarali foydalana olish talabalar orasida kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu esa pedagogik muloqotning muhim omillaridan biridir. Natijalarni umumlashtirib aytganda, talaba-yoshlarning kommunikativ madaniyati ularning shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy va professional rivojlanishida hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan olib qarasak, pedagogik jarayonlarda interaktiv va badiiy pedagogik yondashuvlar talaba-yoshlarning

axloqiy, ijtimoiy va kommunikativ fazilatlarini shakllantirishda eng samarali vosita hisoblanadil.

– **Xulosa** .Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, insonning muloqot jarayoni uning qanday tarbiya egasi ekanligini namoyon etadi. Kommunikativ madaniyat shaxsiy, ijtimoiy hamda professional rivojlanishning eng zarur ko'rsatkichlaridan bo'lib, pedagogik jarayonning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Fikrning ravon, erkin, aniq ifodalanishi esa pedagogik muloqotning muhim belgisi sanaladi. Kommunikativ madaniyatning rivojlanishida ko'p kitob o'qish, o'z ustida ishlash eng muhim jarayondir. Nutqi ravon, fikri aniq insonning esa o'ziga ishonchi yuqori va o'zgaralar munosabati doimo ijobiy bo'ladi. umuman olganda tadqiqot natijalarini shuni ko'rsatib berdiki, talaba-yoshlarning o'z o'rniga ega bo'lishida pedagogik muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy dunyoda pedagogik muloqot jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mana shu jihatdan ta'lim jarayonlarini tashkil etishda yoshlarning ma'naviy va axloqiy sifatlarini o'stirishga qaratilgan zarur strategiyalarni ishlab chiqish va ommaga taqdim etish muhim jarayon sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” 2020-y 5b
2. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat . Toshkent”Iqtisod-Moliya”2011
3. R.Mavlonova, D.Abdurahimova.Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.Toshkent-2009.
4. A.Hamidov.O'qituvchi nutqi madaniyati. Ma'ruza matnlari to'plami.Termiz-2013.
- 5.www.lex.uz